

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH, XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINI YANADA  
TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**



*LexUZ shari*

*Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-soni  
"Xalq ta'lifi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzliksiz kasbiy rivojlantirish  
tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan.*

Bugungi kunda xalq ta'lifi tizimida jami 4 916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9 680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta barkamol avlod markazlari mavjud bo'lib, ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash bo'yicha 5 ta davlat pedagogika instituti, xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institutlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Amaldagi tartibga asosan, xalq ta'lifi muassasalari pedagoglari kamida 5 yilda bir marotaba o'z malakalarini oshiradilar. O'qituvchilar malaka oshirish davomida mamlakatimizda va jahonda pedagogika, psixologiya hamda o'quv fani bo'yicha erishilgan eng yangi yutuqlarni chuqur o'rganib, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlardan xabardor bo'lgan holda ularni amaliyotga tattbiq etib kelmoqdalar.

Shu bilan birga, xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy institutlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, dars berish sifati bugungi kun talablariga javob bermayapti. Xodimlar ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanmaydi, ularning faoliyatini tashqi baholash tizimi samarali yo'lga qo'yilmagan.

O'tkazilgan tahlillar pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarida xalq ta'lifi va oliv ta'lim tizimlari o'rta tizimida uzliksizlik va uzviylik ta'minlanmaganligini ko'rsatdi. Natijada, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari xodimlari faoliyati davomida fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliv ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilg'or xorijiy tajribalardan bexabar qolmoqdalar.

Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi samaradorligini yanada takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining:

Nukus davlat pedagogika instituti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika instituti, Qo'qon davlat pedagogika instituti va Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufiga berish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarini tegishli hududdagi oliv ta'lim muassasalari tasarrufiga berish hamda ular negizida Xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarini (keyingi o'rnlarda Hududiy markazlar deb ataladi) **ilovaga** muvofiq tashkil etish;

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti va Respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasini Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tasarrufiga berish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Hududiy markazlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

xalq ta'limi xodimlarining metodik ehtiyojlarini to'laqonli qondirish maqsadida qayta tayyorlash va malaka oshirishning ilg'or shakl va usullarini joriy etish;

xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot hamda o'quv-metodik ishlarni olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish;

masofadan o'qitish usullari asosida xalq ta'limi muassasalari pedagoglari uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, kurslardagi o'quv mashg'ulotlarini onlayn va offlayn shakllarida tashkil etishni yanada takomillashtirish;

tegishli yo'naliishlar bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishni tashkil etish hamda ular bo'yicha zamonaviy metodik, axborot-ma'lumotnomalarini yaratish;

buyurtmachi tashkilotlar bilan hamkorlikda xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish;

o'quv-tarbiya jarayonining amaliyat bilan o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini sayyor mashg'ulotlar orqali zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan ta'lim muassasalarida tashkil etish;

innovatsion ilmiy yutuqlarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni, masofadan o'qitishni, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish.

### 3. Belgilansinki, Hududiy markazlar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarining huquqlari va majburiyatlar bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

yuridik shaxs maqomiga ega davlat ta'lim muassasasi bo'lib, o'z mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yoziladigan muhriga ega bo'ladi;

ilmiy-metodik ta'minoti oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedralari tomonidan amalga oshiriladi;

o'quv mashg'ulotlarini olib borishga yuqori malakali mutaxassislar hamda o'rindoshlik yoki soatbay haq to'lash asosida oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini jalg etiladi;

xodimlariga oliy ta'lim muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi. Bunda, bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan tinglovchilar nisbatining cheklangan normativlari oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan bir nafar o'qituvchi hisobiga talabalar soni nisbatining cheklangan normativlaridan 25 foiz past etib belgilanadi.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinosi D. Nabihev:

bir oy muddatda joylarga chiqqan holda mazkur qarorga asosan tashkil etilayotgan Hududiy markazlar joylashishi, faoliyatini sifatlari ta'minlanishi sharoitlarini tahlil qilsin;

ikki oy muddatda Hududiy markazlarni malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash yuzasidan zaruriy choralarni ko'rsin;

har uch oyda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot berib borsin.

5. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Hududiy markazlar uchun tayanch oliy ta'lim muassasasi hisoblansin va quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilansin:

xalq ta'limi tizimi xodimlarining kasbiy bilimlari va malakalarini oshirish ishlariga ilmiy-metodik jihatdan rahbarlik qilish;

ta'lim dasturlarining uzluksizligi va izchilligini hisobga olib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitishning interaktiv usullaridan foydalangan holda xalq ta'limi

xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha namunaviy o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish;

qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqish;

ta'llimning ilg'or shakl va usullari, zamonaviy ta'llim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoniga joriy etish asosida rahbar, pedagog va boshqa mutaxassis kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish choralarini ko'rish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi xorijiy tajribalarni, shuningdek eng yaxshi ta'llim muassasalarining yutuqlarini ommalashtirish asosida ilmiy asoslangan innovatsiyalarni joriy etish.

6. Tasarrufida Hududiy markazlar tashkil etilgan oliy ta'llim muassasalari rektorlari:

bir oy muddatda Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi bilan kelishilgan holda Hududiy markaz faoliyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kirlitsin;

ikki oy muddatda Hududiy markazlarda xalq ta'llimi xodimlarini qayta tayyorlash va malaka oshirishning ilg'or shakl va usullarini joriy etish, ta'llim dasturlarini takomillashtirish, tegishli yo'nalishlar bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo'yicha qayta tayyorlash, jumladan, yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikni o'rnatib, onlayn rejimda malaka oshirish tizimini tashkil etsin;

xalq ta'llimi muassasalari pedagoglari uchun tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining tegishli o'quv-metodik resurslarini ishlab chiqish, kurslardagi o'quv mashg'ulotlarini sifatli tashkil etishga shaxsan mas'ul etib belgilab qo'yilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha qaror qabul qilsin va unda quyidagilar nazarda tutilsin:

Hududiy markazlar faoliyatini tashkil etish va ularning namunaviy tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

Hududiy markazlar namunaviy tashkiliy tuzilmasini hamda xalq ta'llimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha ta'llim dasturlarini ishlab chiqishda, o'quv-uslubiy jarayonini tashkil etishda ta'llim turlari o'rtasida uzlusizlik va uzviylikni ta'minlash;

Har bir Hududiy markaz faoliyatini rivojlantirish konsepsiyalarini tasdiqlash.

8. Hududiy markazlarda xalq ta'llimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tahlil qilish yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi A. Yunusxodjayev boshchiligidagi maxsus komissiya tashkil etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligining har ikki oyda Hududiy markazlarda malaka oshirgan va qayta tayyorlangan xalq ta'llimi xodimlarini joylardagi faoliyati samaradorligi to'g'risidagi hisobotini hamda Hududiy markazlar faoliyatini takomillashtirish choralarini bo'yicha takliflarini maxsus komissiyaga kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligining:

Pedagog kadrlar malakasini oshirishni nazorat qilish bo'lumi negizida, Xalq ta'llimi vazirligining Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limini tugatish hisobiga qisqaradigan 2 ta shtat birligini o'tkazishni inobatga olgan holda, 5 ta shtat birligidan iborat Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirishni tashkil etish va nazorat qilish boshqarmasi tashkil etilsin;

Moliyalashtirish va buxgalteriya hisobi boshqarmasiga qo'shimcha 1 ta shtat birligi ajratilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Hududiy markazlarni saqlash xarajatlarini O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini nazarda tutgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining 2017-yilgi parametrlariga tegishli o'zgartirishlar kirlitsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligi, Xalq ta'llimi vazirligi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirlitsinlar;  
o‘zları qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsınlar.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi A.N. Yunusxodjayev zimmasiga yuklansin.

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 26-sentabr,  
PQ-3289-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son qaroriga  
**ILOVA**

### **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarini tegishli hududdagi oliy ta’lim muassasalari tasarrufiga berish hamda ular negizida tashkil etiladigan Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari**

#### **RO‘YXATI**

<b>Nº</b>	<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari</b>	<b>Tasarrufiga Hududiy markazlar berilgan oliy ta’lim muassasalari</b>	<b>Tashkil etiladigan Hududiy markazlar va ular faoliyatini tashkil etish uchun shaxsan mas’ul bo‘lgan rahbarlar F.I.Sh.</b>
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Nukus davlat pedagogika instituti	Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiiev</b> Nukus davlat pedagogika instituti rektori <b>Q.K. Orazimbetov</b>
2.	Andijon viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Andijon davlat universiteti	Andijon davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiiev</b> Andijon davlat universiteti rektori <b>A.S. Yuldashev</b>

3.	Farg‘ona viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Farg‘ona davlat universiteti	Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiyev</b> Farg‘ona davlat universiteti rektori <b>A.X. Xaitboyev</b>
4.	Namangan viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Namangan davlat universiteti	Namangan davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiyev</b> Namangan davlat universiteti rektori <b>A.V. Umarov</b>
5.	Navoiy viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Navoiy davlat pedagogika instituti	Navoiy davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiyev</b> Navoiy davlat pedagogika instituti rektori <b>B.X. Daniyarov</b>
6.	Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Buxoro davlat universiteti	Buxoro davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi  <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabiyev</b> Buxoro davlat universiteti rektori <b>A.A. Tulaganov</b>
7.	Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Samarqand davlat universiteti	Samarqand davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning

			<p>malakasini oshirish hududiy markazi</p> <p><b>Mas'ullar:</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining birinchi o'rindbosari</p> <p><b>D.X. Nabihev</b></p> <p>Samarqand davlat universiteti rektori <b>R.I. Xalmuradov</b></p>
8.	Jizzax viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Jizzax davlat pedagogika instituti	<p>Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi</p> <p><b>Mas'ullar:</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining birinchi o'rindbosari</p> <p><b>D.X. Nabihev</b></p> <p>Jizzax davlat pedagogika instituti rektori <b>A.J. Xolbekov</b></p>
9.	Sirdaryo viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Guliston davlat universiteti	<p>Guliston davlat universiteti huzuridagi xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi</p> <p><b>Mas'ullar:</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining birinchi o'rindbosari</p> <p><b>D.X. Nabihev</b></p> <p>Guliston davlat universiteti rektori <b>B.S. Zakirov</b></p>
10.	Xorazm viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Urganch davlat universiteti	<p>Urganch davlat universiteti huzuridagi xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi</p> <p><b>Mas'ullar:</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining birinchi o'rindbosari</p> <p><b>D.X. Nabihev</b></p> <p>Urganch davlat universiteti rektori <b>B.I. Abdullayev</b></p>
11.	Qashqdaryo viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Qarshi davlat universiteti	<p>Qarshi davlat universiteti huzuridagi xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi</p> <p><b>Mas'ullar:</b></p>

			O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabihev</b> Qarshi davlat universiteti rektori <b>B.A. Shoimkulov</b>
12.	Surxondaryo viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Termiz davlat universiteti	Termiz davlat universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabihev</b> Termiz davlat universiteti rektori <b>A.X. Toshkulov</b>
13.	Toshkent viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti	Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabihev</b> Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori <b>G.I. Muxamedov</b>
14.	Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi <b>Mas’ullar:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari <b>D.X. Nabihev</b> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori <b>Sh.S. Sharipov</b>

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017-y.)